4- kurs.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"
Termiz davlat universiteti
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor
prof.R.To‘rayev
2024-yil " 26 " 06

Ro‘yxatga olindi: № № BD. 60411400.2.15.
2024-yil " 26 " 06

# KORXONA IQTISODIYOTI

## FANINING O‘QUV DASTURI

| | | |
|---|---|---|
| Bilim sohasi: | 400000- | Biznes, boshqaruv va huquq |
| Ta’lim sohasi: | 410000- | Biznes va boshqaruv |
| Ta’lim yo‘nalishi: | 60411400- | Inson resurslarini boshqarish |

Termiz – 2024

| Fan/modul kodi<br>ECOSEC6 | | O‘quv yili<br>2024-2025 | Semestr<br>8 | Kreditlar<br>6 |
|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi<br>Tanlov | | Ta’lim tili<br>o‘zbek | Haftadagi dars soatlari<br>5 | |
| 1. | Fanning nomi | Auditoriya mashg‘ulotlari | Mustaqil ta’lim | Jami yuklama |
| | Korxona iqtisodiyoti | 72 | 108 | 180 |

**2.**

### I. Fanning mazmuni

**Fanni o‘qitishdan maqsad** – talabalarda bozor munosabatlari sharoitida korxonalar faoliyatini tashkil etish, boshqarish, iqtisodiy samaradorligini oshirish hamda rivojlantirish yo‘llari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakani shakllantirishdir.

**Fanning vazifalari** quyidagilardan iborat:

- korxonalar faoliyatining me’yoriy-huquqiy asoslarini o‘rgatish;
- turli mulk shakllariga asoslangan korxonalar faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini o‘rgatish;
- mamlakatimizda korxonalar faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar haqida ma’lumotlar berish;
- korxonalarda mahsulotlarni ishlab chiqarish, ularni samarali taqsimlash, korxonalarda marketing faoliyati, korxonalar faoliyatining ixtisoslashuvi, korxonalar faoliyatida amalga oshiriladigan xarajatlar, mahsulot tannarxi, ularni pasaytirish yo’llari, korxonalarning o‘z faoliyatidan oladigan daromadlari, foydasi, ularni ko‘paytirish yo‘llarini, korxonalar faoliyatidagi tavakkalchilik va uni bartaraf etish yo’llari, korxonalar faoliyati iqtisodiy samaradorligini oshirish va rivojlantirish, korxonalarda bankrotlik holatining oldini olish yo‘llarini o‘rgatish.

**3.**

### II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

### 1-MODUL. KORXONALAR FAOLIYATINING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI

**1-mavzu: “Korxona iqtisodiyoti” fanining predmeti, vazifalari va usullari**

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida “Korxona iqtisodiyoti” fanining ahamiyati. “Korxona iqtisodiyoti” – iqtisodiy fanlarning tarkibiy qismi va boshqa fanlar bilan aloqadorligi. “Korxona iqtisodiyoti” fanining predmeti, vazifalari va usullari.



**2-mavzu: Korxonalar faoliyatining me’yoriy-huquqiy asoslari**

O’zbekiston Respublikasida normativ-huquqiy hujjatlar tizimi. Korxonalar faoliyatiga taalluqli me’yoriy hujjatlar. Korxonalar faoliyatiga taalluqli me’yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish yo’llari.

**3-mavzu: Korxona va uning tashkiliy bo‘linmalarini boshqarish**

Korxona faoliyatida boshqaruv tushunchasi va uning obyektiv zaruriyati. Korxonalarni boshqaruv xususiyatlari va tarkibiy qismi. Boshqaruv subyekti va obyekti. Korxonani boshqarishning tamoyillari, shakllari va uslublari.Korxonaning boshqaruv apparati. Korxonani boshqarishda rahbarning xususiyatlari, o‘rni va roli.

### 2-MODUL. KORXONALAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

**4-mavzu: Korxona faoliyatini rejalashtirish va bashoratlash**

Rejalashtirishning mohiyati, asosiy tamoyillari va usullari. Korxonalarda qo’llaniladigan rejalashtirish shakllari. Korxonalarning yillik ishlab chiqarish biznes-rejasi va korxonalar faoliyatini bashoratlash.

**5-mavzu: Korxonalarda marketing faoliyatini tashkil etish. Korxonalarning tovar siyosati.**

Marketingning mohiyati va ahamiyati. Marketingning turlari. Korxonalar faoliyatida marketingning o’rni va ahamiyati. Korxonalarning marketing konsepsiyasi. Korxonalarda tovar siyosati va uning marketing tizimidagi o’rni.

**6-mavzu: Korxonaning moddiy-texnika ta’minoti va uni takomillashtirish yo‘llari**

Moddiy-texnika resurslarining mohiyati va ahamiyati. Korxonalarning moddiy-texnika bazasi. Korxonalar faoliyatiga fan-texnika taraqqiyotini joriy etish masalalari. Moddiy-texnika resurslaridan foydalanish holati va samaradorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar. Moddiy-texnika resurslaridan oqilona, to‘liq va samarali foydalanish yo‘llari. Korxonalarning mexanizatsiyalashganlik va avtomatlashtirilganlik darajasi. Moddiy-texnika resurslaridan foydalanish holati va samaradorligini oshirish yo‘llari.

**7-mavzu: Korxonaning asosiy va aylanma fondlari hamda ulardan samarali foydalanish yo‘llari**

Korxonalarning asosiy fondlari to‘g‘risida tushuncha, ularning ahamiyati va turkumlanishi. Bozor munosabatlari sharoitida asosiy fondlarni shakllantirish manbalari. Asosiy fondlardan foydalanish holati va samaradorligini tavsiflovchi

ko'rsatkichlar. Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari.

**8-mavzu: Korxonalarning mehnat resurslari, mehnatni tashkil etish va unga haq to'lash shakllari**

Mehnat resurslarining mohiyati va korxonalar faoliyatidagi ahamiyati. Korxonalarda mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi.

Korxonalarda mehnatni tashkil etish va unga haq to'lash shakllari. Korxonalarda mehnat unumdorligini oshirish yo'llari.

## 3-MODUL. KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

**9-mavzu: Korxonalarda qilinadigan xarajatlar va mahsulot tannarxi**

Korxonalarda qilinadigan xarajatlarning mohiyati va ahamiyati. Korxonalarda xarajatlarning turkumlanishi. Korxona mahsulotlari tannarxi haqida tushuncha, uning turlari va aniqlanish tartibi. Korxonalarda xarajatlarni tejash va mahsulotlar tannarxini pasaytirish yo'llari.

**10-mavzu: Korxonalarda investitsion faoliyat va uning samaradorligini oshirish yo'llari**

Korxonalar faoliyatida investitsiyaning mohiyati va ahamiyati. Korxonalarda investitsiyalarni jalb etish manbalari. Investitsiyalardan foydalanish samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi. Korxonalar faoliyatiga investitsiyalarni jalb etish ko'lamini va samaradorligini oshirish yo'llari.

**11-mavzu: Korxonalarning innovatsion faoliyati va uning samaradorligini oshirish yo'llari**

Innovatsiyaning mohiyati, ahamiyati va turlari. Korxonalarda innovatsion faoliyatning tashkil etilishi. Korxonalarda ilmiy tadqiqotlar va rivojlanish (R&D) bo'yicha ishlarning tashkil etilishi. Korxonalar faoliyatiga innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi.

**12-mavzu: Korxonalarning narx siyosati**

Narxning iqtisodiy mohiyati, shakllanishi va turlari. Narxning vazifalari va funksiyalari. Korxonalarning narx siyosati. Bozor munosabatlari sharoitida korxonalarda narxning shakllanishini yanada takomillashtirish yo'llari.



**13-mavzu: Korxonalarning ixtisoslashuv darajasi**

Korxonani joylashtirish va ixtisoslashtirish tushunchalari, ularning ilmiy asoslari. Ixtisoslashtirishning shakllari va ko'rsatkichlari. Korxonalarda ixtisoslashuvning samaradorligini oshirish imkoniyatlari.

**14-mavzu: Korxonalarda faoliyatining iqtisodiy samaradorligi va uni oshirish yo'llari**

Iqtisodiy samaradorlikning mohiyati va uning korxonalar faoliyatidagi ahamiyati. Korxonalarda iqtisodiy samaradorlikni tavsiflovchi ko'rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi. Korxonalarda iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo'llari.

## 4-MODUL. KORXONALAR FAOLIYATINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI

**15-mavzu: Korxonalar faoliyatidagi tavakkalchilik va uni bartaraf etish yo'llari**

Tavakkalchilikning mohiyati, korxonalar faoliyatidagi xavf-xatarlar turlari va ularni boshqarishning zarurligi. Korxonada ishlab chiqarish tavakkalchiligini baholash usullari. Korxonalar faoliyatida ishlab chiqarish tavakkalchiligi chegaralari, iqtisodiy va huquqiy asoslari. Korxonalarda tavakkalchilik darajasini kamaytirish yo'nalishlari.

**16-mavzu: Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi va tijorat siri.**

Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasi. Korxona iqtisodiy xavfsizligining tasnifi. Korxona iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning konsepsiyasi va tamoyillari. Korxonaning tijorat siri. Korxona tijorat sirini himoya qilish mexanizmi. Raqobatchilar haqida axborot olish usullari.

**17-mavzu: Korxonalarda bankrotlik holati va uning oldini olish yo'llari**

Korxonalarda bankrotlikning mohiyati. Bankrotlik alomatlari. Korxonalarning bankrotlik holatini aniqlashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar. Korxonalarda bankrotlik holatining oldini olish yo'llari.

| | |
|---|---|
| **4.** | **III. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar.**<br>Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:<br>1. “Korxona iqtisodiyoti” fanining predmeti, vazifalari va usullari<br>2. Korxonalar faoliyatining me’yoriy-huquqiy asoslari<br>3. Korxona va uning tashkiliy bo‘linmalarini boshqarish<br>4. Korxona faoliyatini rejalashtirish va bashorat qilish<br>5. Korxonalarda marketing faoliyatini tashkil etish<br>6. Korxonalarning tovar siyosati<br>7. Korxonaning moddiy-texnika ta’minoti va uni takomillashtirish yo‘llari<br>8. Korxonaning asosiy fondlari va ulardan samarali foydalanish yo‘llari<br>9. Korxonaning aylanma fondlari va ulardan samarali foydalanish yo‘llari<br>10. Korxonalarning mehnat resurlari, mehnatni tashkil etish va unga haq to‘lash shakllari<br>11. Korxonalarda qilinadigan xarajatlar va mahsulot tannarxi<br>12. Korxonalarda investitsion faoliyat va uning samaradorligini oshirish yo‘llari<br>13. Korxonalarning innovatsion faoliyati va uning samaradorligini oshirish yo‘llari<br>14. Korxonalarning narx siyosati<br>15. Korxonalarning ixtisoslashuv darajasi<br>16. Korxonalarda faoliyatining iqtisodiy samaradorligi va uni oshirish yo’llari<br>17. Korxonalar faoliyatidagi tavakkalchilik va uni bartaraf etish yo‘llari<br>18. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi va tijorat siri.<br>19. Korxonalarda bankrotlik holati va uning oldini olish yo‘llari<br>Amaliy mashg‘ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada interfaol usullar yordamida o‘tilishi, mavzularga mos keluvchi pedagogik texnologiyalar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq. |
| **5.** | **IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar.**<br>Mustaqil ta’lim fan bo‘yicha ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rishdan tashqari o‘quv dasturida ko‘rsatilmagan, ammo fan bo‘yicha talabaning bilim doirasini kengaytiruvchi qo‘shimcha mavzular doirasida berilgan topshiriq savollarini o‘z ichiga oladi.<br>Mustaqil ta’limning turli shakllari mavjud bo‘lib, unda talaba o‘qituvchi rahbarligida fan bo‘yicha yangi bilimlarni, o‘quv va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish, ijodiy faoliyatni amalga oshira oladi.<br>“Korxona iqtisodiyoti” fani bo‘yicha mustaqil ishlarni tashkil etish talabalarda korxonalar iqtisodiyoti haqida bilim, dunyoqarash, ijtimoiy faollik va mustaqil fikrlashni shakllantirishga qaratilgan tadbirlar tizimini o‘z ichiga oladi. U fanning o‘quv rejasi va fan sillabusida ko‘zda tutilgan zarur bilimlar va ko‘nikmalarning talabalar tomonidan o‘zlashtirilishini ta’minlaydi.<br>Fan bo’yicha mustaqil ta’lim O‘RTMI (o‘qituvchi rahbarligida talaba mustaqil ishi) va TMI (talaba mustaqil ishi) shakllarida amalga oshiriladi. |



| | |
|---|---|
| | O‘RTMI fanning tegishli mavzulari bo’yicha esse yozish, “SWOT tahlil” texnologiyasi asosida berilgan topshiriqni bajarish, elektron jurnallardan mavzuga oid maqola topib tahlil qilish, krossvord tayyorlash, “Venn diagrammasi” texnologiyasi asosida berilgan topshiriqni bajarish, test savollari tayyorlash, taqdimot tayyorlash, referat tayyorlash, “Nilufar guli” texnologiyasi asosida berilgan topshiriqni bajarish, “Keys stadi” texnologiyasi asosidagi topshiriqni bajarish kabi shakllarda amalga oshiriladi. TMI esa talabalar tomonida tayyorlanadigan referatlar shaklida amalga oshiriladi. Fan bo‘yicha mavzularni yanada chuqur o‘rganishlarini ta’minlash maqsadida talabalarga fan yuzasidan mavzular taqsimlab beriladi va ushbu mavzular yuzasidan talabalar referat tayyorlaydilar va topshiradilar.<br>TMI (talaba mustaqil ishi) uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:<br>1. Korxona - mustaqil xo‘jalik faoliyatini yurituvchi bozor subyekti.<br>2. Bozor munosabatlari sharoitida korxonalar faoliyatini tartibga soluvchi me’yoriy hujjatlar.<br>3. Korxonalar faoliyatini tashkil etish shartlari, zarur hujjatlar.<br>4. Bozor munosabatlari sharoitida boshqaruvning mohiyati, maqsadi, vazifalari va tamoyillari.<br>5. Korxonalarda boshqaruv qarorlarini qabul qilish hamda boshqaruvning asosiy funksiyalari.<br>6. Korxona faoliyatini rejalashtirish va uning shakllari.<br>7. Korxona faoliyatini bashoratlash va uning usullari.<br>8. Korxonalarda marketing faoliyatini tashkil etish.<br>9. Korxonaning asosiy fondlari va uning tarkibi.<br>10. Korxonalarda asosiy fondlarni shakllantirish manbalari, ulardan foydalanish holati va samaradorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar.<br>11. Korxonaning aylanma fondlari va ularning tarkibi.<br>12. Korxonalarda aylanma fondlarni shakllantirish manbalari, ulardan foydalanish holati va samaradorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar.<br>13. Korxonada mehnat resurslari va mehnatni tashkil etish shakllari.<br>14. Korxonada mehnatga haq to‘lash shakllari.<br>15. Korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlari va ularning turkumlanishi.<br>16. Korxonalarda mahsulot tannarxi va uni pasaytirish yo‘llari.<br>17. Korxonaning investitsion faoliyati va uni amalga oshirish shakllari.<br>18. Korxonalarda investitsiyalarni amalga oshirish manbalari va ularni yanada takomillashtirish shakllari.<br>19. Korxonaning innovatsion faoliyati va uni tashkil etish shakllari.<br>20. Korxonalarning narx siyosati.<br>21. Korxonalarning ixtisoslashuv darajasi va uni takomillashtirish yo’llari.<br>22. Korxonalar faoliyatidagi tavakkalchilik va uni bartaraf etish yo’llari. |

| | |
|---|---|
| | 23. Korxonalarda ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi va uni tavsiflovchi ko‘rsatkichlar.<br>24. Korxonalarda iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini oshirish yo‘llari.<br>25. Korxonalarda bankrotlik holati va uning oldini olish yo‘llari.<br><br>TMI (talaba mustaqil ishi) mavzulari bo‘yicha talabalar referat tayyorlaydilar va uni taqdimot qiladilar. |
| 6. | **V. Fan o‘qitilishidan kutiladigan natijalar (shakllanadigan kompetensiyalar).**<br>“Korxona iqtisodiyoti” fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:<br>- korxonalar faoliyatining me’yoriy-huquqiy asoslari, korxonalardagi ishlab chiqarish resurslari va ulardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini mavjud bo‘lgan tadqiqot usullaridan foydalangan holda aniqlashni va kelajakda ularni rivojlantirish hamda samaradorligini oshirish yo‘llarini belgilab berishni; turli mulk shaklidagi korxonalar faoliyatini rivojlantirishni; korxonalarga investitsiyalarni jalb etish hamda samaradorligini oshirish yo‘llarini bilishi;<br>- korxonalar iqtisodiyotiga oid statistik ma’lumotlar va turli hisobotlar ma’lumotlarini yig‘ish, qayta ishlash va tahlil qilish bo‘yicha; korxonalar iqtisodiyotining rivojlanishini ta’minlaydigan investitsiyalarning samaradorligini ta’minlaydigan xulosa va takliflarni tayyorlash bo‘yicha ***ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari;***<br>- korxonalar faoliyatini tashkil etish va boshqarish, korxonalarda mahsulotlarni ishlab chiqarish, ularni samarali taqsimlash, korxonalarda marketing faoliyati, korxonalar faoliyatining ixtisoslashuvi, korxonalarda mahsulot tannarxini pasaytirish yo‘llari, korxonalar faoliyatidagi tavakkalchilikni bartaraf etish yo’llari, korxonalar faoliyati iqtisodiy samaradorligini oshirish yo’llari va korxonalarda bankrotlik holatining oldini olish bo‘yicha ***malakalarga ega bo‘lishi kerak.*** |
| 7. | **VI. Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma’ruzalar;<br>• esse, tezis va maqolalar yozish;<br>• vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) yechish;<br>• jarayonli-yo‘naltirilgan ta’lim;<br>• muhokamalarda ishtirok etish;<br>• kichik guruhlarda ishlash;<br>• mustaqil ishlarni bajarish;<br>• taqdimot tayyorlash;<br>• turli darajadagi testlarni yechish. |



| | |
|---|---|
| 8. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha test yoki yozma ishni topshirish. |
| 9. | **VIII. Fan bo‘yicha adabiyotlar va axborot manbalari.**<br>**Asosiy adabiyotlar:**<br>1. Ro‘ziyeva D.I. Korxona iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma. -T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi”, 2022, –268 b.<br>2. Shodmonov E.Sh., Bababekova D.Sh., Tursunov B.O. Korxona iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish. Darslik, -T.: “Iqtisod-Moliya”, 2020, -528 b.<br>3. Abdukarimov B.A. va boshqalar. Korxona iqtisodiyoti. Darslik, -T.: “Fan va texnologiya”, 2013, –368 b.<br>4. Muratov R.S., Djalalova I.A., Oripov S.Sh. Korxona iqtisodiyoti. Darslik, -T.: “Iqtisodiyot”, 2011, -500 b.<br>5. Mahmudov E.X. Korxona iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma. -T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg’armasi nashriyoti, 2004, – 208 bet.<br><br>**Qo‘shimcha adabiyotlar:**<br>1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent. “O‘zbekiston” NMIU, 2021.-464 b.<br>2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasi. https://president.uz/oz/lists/view/5774<br>3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son.<br>4. Pardayev M.Q., Aminov Z.Yu. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi va uni ta’minlash yo‘llari. Samarqand, “Zarafshon”, 2008<br>5. Martin Ricketts. The Economics of Business Enterprise. An Introduction to Economic Organization and the Theory of the Firm. UK, London, Edward Elgar publishing, 4th Edition. 2019, -680 pp.<br>6. Волкова О.И., Девяткина О.В. Экономика предприятия. Учебное пособие. - М.: ИНФРА-М, 2012. – 601 стр.<br><br>**Internet saytlari:**<br>1. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali<br>2. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy sayti<br>3. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi |

| | |
|---|---|
| **10.** | Fanning o‘quv dasturi Termiz davlat universitetida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.<br>Fan/modul uchun mas’ullar:<br>B.E.Turayev - TerDU “Iqtisodiyot” kafedrasi mudiri, PhD.<br>N.J.Nurmatov - TerDU “Iqtisodiyot” kafedrasi katta o‘qituvchisi.<br>G.X.Egamnazarova - TerDU “Iqtisodiyot” kafedrasi o‘qituvchisi. |
| **11.** | **Taqrizchilar:**<br>Termiz davlat universiteti “Raqamli iqtisodiyot, biznes boshqaruvi va ekonometrika” kafedrasi mudiri, i.f.f.d.Toshaliyeva S.T.<br>Termiz iqtisodiyot va servis universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasi katta o’qituvchisi, i.f.f.d.Amonov M.O. |